



MUSTAQILLIK DAVRIDA G'AFUR G'ULOM IJODIGA YANGICHA TALQIN: MILLIY VA UMUMINSONIY G'OYALAR UYG'UNLIGI.

G'aybullayeva Sevara Shuhrat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, xalqaro huquq va qiyosiy
huquqshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19252695>

XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri — O'zbekiston xalq shoiri, atoqli adib va tarjimon G'afur G'ulom ijodi sovet davrida asosan mafkuraviy talqin doirasida o'rganilgan bo'lsa, mustaqillik yillarida bu meros yangi metodologik yondashuvlar asosida qayta baholanmoqda. Sho'ro davridagi adabiyotshunoslikda asarlarning g'oyaviy to'g'riligi, internatsionalizm va sotsialistik qurilish mavzulari ustuvor bo'lgan. Mustaqillikdan keyin esa milliy o'zlik, insonparvarlik va falsafiy chuqurlik kabi jihatlar birinchi o'ringa chiqdi. Bu o'zgarish adib ijodini yanada keng talqin qilish imkonini berdi.

Sovet davridagi tadqiqotlarda, masalan Olim Sharafiddinov, Naim Karimovning dastlabki ishlarida G'afur G'ulom asosan "internatsional shoir" sifatida talqin etilgan. Urush she'rlarida "Men – Yahudiyman", "O'zbek qizi", "Do'stlik qo'shig'i" xalqlar do'stligi va g'alaba g'oyalarining ramzi sifatida ko'rilgan. Shu bilan birga, shoirning shaxsiy fojialari, yetimlik motivlari, tabiat va hayot falsafasiga oid "Qayg'u", "Bog", "Kuzgi ko'chatlar" she'rlari ko'pincha chetlab o'tilgan yoki mafkuraviy talqin doirasida soddalashtirilgan.

Mustaqillik davrida fikr erkinligi va milliy o'zlikni qayta kashf etish jarayoni adib merosini yangicha o'qishga zamin yaratdi. Bu jarayonning yorqin namoyishi — 2023-yil 8-mayda Toshkent davlat yuridik universiteti va G'afur G'ulom uy-muzeyi hamkorligida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'ldi. Konferensiya mavzusi "G'afur G'ulom ijodida milliy va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi" deb nomlandi va unda sho'ro mafkurasi cheklovlaridan xalos bo'lgan yangi talqinlar muhokama qilindi. Materiallar to'plamida ta'kidlanganidek, adib asarlarida milliy ruhi, ya'ni o'zbek xalqining o'ziga xosligi va umuminsoniy qadriyatlar inson huquqlari, tinchlik bir-biriga chambarchas bog'langan. Konferensiyada xorijiy olimlar ham ishtirok etib, "Men – Yahudiyman" she'rining bugungi global kontekstdagi ahamiyatini ta'kidlashdi.

Undan tashqari, "Shum bola" qissasi sovet davrida bolalar adabiyoti va tarbiya namunasi sifatida talqin qilingan bo'lsa, bugun uni zulmga asoslangan tizim ostidagi bolalar taqdiri, yetimlik fojiasi va xalq hayotining haqiqiy manzarasi sifatida o'qiydiz. Shum bolaning sho'xliklari orqali oddiy odamlarning hazil-mutoyibasi, qiyinchiliklarga qarshi chidamliligi va milliy ruh ochiladi. Bu asar endi nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun ham chuqur ijtimoiy-falsafiy matn sifatida qaralmoqda. Urush she'rlari ham yangicha ma'no kasb etdi. "Men – Yahudiyman" she'ri ilgari internatsionalizm ramzi bo'lgan bo'lsa, hozir global inson huquqlari kontekstida — millatdan qat'i nazar har bir inson qadrini himoya qilish g'oyasi sifatida talqin qilinmoqda. "Sen yetim emassan", "Biri biriga shogird, biri biriga ustod" kabi she'rlarda ota timsoli, ustozlik va Sharq donishmandligi Navoiy va Bobur an'analari bilan bog'lanib ko'rilmogda. Bu yerda insonparvarlik va milliy g'urur uyg'unlashgan.

Mustaqillik yillarida akademik Baxtiyor Nazarovning "G'afur G'ulom olami" risolasi istiqbol yillaridagi g'afurg'ulomshunoslikning eng yorqin yutuqlaridan biri bo'ldi. Bu kitobda

olim ilmiy va biroz gipotetik yondashuvlarga tayanib, shoirning estetik dunyoqarashi, tasavvur kengligi va ichki kechinmalarini chuqur ochib berishga harakat qilgan. Jumladan, olim Baxtiyor Nazarov G'afur G'ulomni sovet davrining juda tahlikali sharoitida o'zining asl fikr va orzularini ataylab "yashirinish uslubi" orqali ifodalagan deb hisoblaydi. U shoirning ayrim misralari, kichik she'riy parchalar va ko'chim ma'nolarini alohida tahlil qilib, ular orqali haqiqiy maqsadni yashirganini ko'rsatadi. Olim G'afur G'ulomni "o'zbekning pahlavon shoiri" deb ataydi va "Men yahudiy", "Sen yetim emassan", "Vaqt", "Sog'inish", "Sharaf qo'lyozmasi" kabi asarlaridagi badiiy haqiqatni XX asrning og'ir sinovlari bilan bog'lab, juda ishonarli tahlil qiladi. Nazarovning fikricha, shoirning yuragi jahoniy iztiroblar bilan urib turgan, she'rlarida esa inson va xalq dardlari, yashirin ozodlik orzulari ifodalangan. U oldingi adabiyotshunoslarning nozik kuzatishlarini hurmat qilgan holda, G'afur G'ulom ijodini endi mafkura va siyosatdan uzoqroqqa qo'yib, asosan uning badiiyligi va mahoratiga e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, bu risola shoirning ijodiy olamiga chin dildan kirib borishga yordam beradi va XX asr o'zbek adabiyotining ko'pgina yashirin tomonlarini yoritib beradi. Bugungi kunda G'afur G'ulom ijodi yosh avlodni milliy g'urur va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Adib uy-muzeyi faoliyati, yangi nashrlar va ilmiy izlanishlar bu merosning doimiy dolzarbligini ko'rsatadi. Mustaqillik davri talqini shuni ko'rsatadiki, G'afur G'ulom ijodi vaqt o'tishi bilan boyib boradi: u nafaqat o'tmishni aks ettiradi, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ma'naviy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sho'ro davridagi mafkuraviy talqindan farqli o'laroq, mustaqillik yillarida G'afur G'ulom chinakam milliy donishmand va umuminsoniy qadriyatlar tarannumchisi sifatida ochildi. Uning asarlarini yangicha o'qish — bu o'zbek adabiyotining o'ziga xosligini va jahon madaniyati bilan uyg'unligini anglash demakdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov N. G'afur G'ulom. Shoir hayoti va she'riy ijodiga bir nazar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.
2. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – Toshkent: Fan, 2004.
3. "G'afur G'ulom ijodida milliy va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2023.
4. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar (she'rlar va qissalar). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, turli yillar nashrlari.
5. "Tavalludiga 120 yil to'lgan adib — G'afur G'ulom uy-muzeyiga sayohat" (Gazeta.uz sayti maqolasi, 2023-yil).
6. Worldly Journals: G'afur G'ulom ijodining o'rganilishi (maqola, mustaqillik davri talqinlari haqida)..